

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

FALAKIYOT

O'ZBEKISTONDA ASTRONOMIYA:



Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi", degan so'zlari barchamizni bu harakatga astoydil yondoshishga da'vat etadi.

E'tiboringizga havola etilayotgan maqolada buyuk uyg'onishlar davri Renessanslarning ro'y berishida ma'rifatli hukmdor-metsenatlarning qadimda va bugungi kundagi roliga astronomiya fani misolida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Astronomiya boshqa ilm-fan sohalarini kabi o'zining taraqqiyotida gurkirab rivojlanish hamda turg'unlik davrlarini boshidan kechirgan. Samo sirlarini o'rganishga qaratilgan fanning navbatdagi yuksalish davri milodiy IX asrda Bag'dodda boshlangan. Mashhur "Ming bir kecha" ertaklarining qahramoni Horun ar-Rashid o'g'li Abdullonhi Xurosonga hokim etib tayinlaydi. Tabiatni ilm-fan metsenati (homiyi) bo'lgan Abdullonhi viloyatning poytaxti Marv shahrida zamonasining iste'dodli

olimlarini to'plab, ilmiy markaz tashkil etgan. Bular orasida Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg'oniylar ham bo'lgan.

U 809-yili Bag'dodga qaytib, taxtga xalifa al-Ma'mun nomi bilan o'tiradi. Al-Ma'mun Bayt ul-Hikma ("Donishmandlar uyi")ni tuzib ilm-fanni, ayniqsa, astronomiyani rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan. Bayt ul-Hikmaning dong'ini dunyoga yoyishda eng salmoqli rolni aynan bizning vatandoshlarimiz Xorazmiy va Farg'oniylar o'ynagan.

Lekin biz buyuk bobokolonlarimizning ijodi haqida gapirganimizda, ilmiy merosini o'rganishga qaratilgan anjumanlar o'tkazganimizda negadir ijodiy ishlarini amalga oshirishda ularga sharoit yaratib bergan, zamonaning dolzarb masalalarini yechishni vazifa qilib qo'ygan va bu jarayonni moliyaviy ta'minlagan metsenat-hukmdorlarni umuman esga olmaymiz. Masalan, 827-yili Sanjar cho'lida Yer meridianining bir gradusini o'lchash orqali sayyoramizning o'lchamlarini

aniqlash masalasi astronomlar oldiga shaxsan xalifa al Ma'mun tomonidan qo'yilgan. Chunki karvon va dengiz yo'llaridan yurib mamlakat iqtisodiyotida o'ta muhim bo'lgan savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yish uchun Yerning o'lchamlarini, turli o'lkalari va shaharlar orasidagi masofalarni aniq bilish taqozo etilardi.

(Davomi 2-sahifada.)

FAN RAVNAQI

MATEMATIKA – HAQIQAT DEMAK!



O'tkir ROZIQOV, akademik

"Matematika fanining tamal toshini al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' bobolarimiz qo'ygan", – degan edi Prezidentimiz V.I.Romanovskiy nomidagi matematika institutiga tashrif buyurib, uning faoliyati bilan tanishganida.

Mamlakatimizda ilm-fan, xususan, matematika rivojiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasi turli sohalarida yangi texnologiyalar tatbiq etilishi, o'quvchi va talabalarning xalqaro fan olimpiadalardagi yutuqlari, yetuk olimlarimizning xorijdagi ilmiy doiralarda obro'-e'tibori oshib borayotgani bilan ham izohlanadi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti direktori o'rinbosari, Gibbs o'lchovlari nazariyasiga salmoqli hissa qo'shgan va matematik biologiyada o'z nazariyasini yaratgan ulkan olim, akademik O'tkir ROZIQOV bilan suhbatimiz shu mavzuda bo'ldi.

– O'tkir aka, Prezidentimizning 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Matematika instituti Fanlar akademiyasi tarkibida qayta tashkil etildi. O'tgan yillar davomida institut tomonidan qanday muhim ishlar amalga oshirildi?

– Prezidentimizning 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bizga dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Bu qarorlar ijrosida ilm-fan ahliga katta e'tiborni his qildi.

Haqiqatdan ham 2017-yildan boshlab matematika fani va ta'limini yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratila boshlandi.

(Davomi 3-sahifada.)

TARAQQIYOT

"RAQAMLI O'ZBEKISTON" qanday amalga oshiriladi?

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jadal kirib boryapti. Mamlakatimizda raqamlashtirish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2019 yil 20 noyabrda dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki zamonaviy majmuasi qurilishiga tamal toshi qo'ygani, sohada yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun zamonaviy sharoitlar yaratilayotgani ham shular jumlasidandir.

(Davomi 3-sahifada.)

TAASSUROT

"MEN SURONLI HAYOTIMDAN ROZIMAN, ROZI..."

"Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur"

Sh.M.MIRZIYOEV

Davlatimiz Rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 1-mart kuni Urganchdagi Jaloliddin Manguberdi nomli harbiy-akademik litseyga tashrifi chog'ida shu kabi ta'lim maskanlarining ahamiyati va mas'uliyati haqida alohida to'xtalib, eng sharafli kasb etayotgan harbiy o'quv muassasalari murabbiylari va mas'ullari zimmasiga zalvorli vazifalarni yuklaydi. Mamlakat daxlsizligiga javobgar shaxs bo'lib ulg'ayajak o'quvchilarga barcha jabhada, hatto aniq fanlar mag'zida ham Vatanga sadoqat, mehr-u muhabbat tuyg'ularini singdirish kun tartibida turibdi. Shunga ko'ra, taalluqli maktablar darslik va qo'llanmalargagina suyanib qolmasdan, balki yurtimizning ziyolilari, ijodkor-u san'atkorlari, taniqli vakillari ham yosh harbiylar bilan muntazam uchrashib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradigan hayotiy hikoyalari, ijod namunalari vositasida noan'anaviy saboqlarni yo'lga qo'yimoqda.

Bu yil Farg'ona shahridagi "Temurbeklar maktabi"da Sohibqiron Amir Temur tavalludi



kuni bir guruh adabiyot va san'at vakillari, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari hamda generallar, ofitserlar, harbiy xizmatchilar ishtirokida nishonlandi.

"Sovet davrida Farg'ona shahrining Frunze (!) massivida Suvorov (!) nomli harbiy maktab bo'lardi. Bu muassasada asosan boshqa millat vakillari o'qir, ularning aksariyati tirik yetim, tarbiyasi og'ir bolalar edi. Shu ko'chadan o'tib qolsangiz, doim dag'dag'a, shovqin-suron aralash yig'i tovushlari ko'ngilni g'ash qilardi. Ba'zan yuz-ko'zi ko'kargan o'smirlar ranjara oralab "Дяденька, дай закурит, дай хлеба..." deb yolvorardi. Bu maktab aslida ta'lim maskani emas, jazo o'tash koloniyasini eslatardi", deydi Sharqiy harbiy okrug qo'mondoni o'rinbosari, polkovnik Shuhrat Abdullayev.

"Temurbeklar maktabi"ning bugungi qiyofasi bu sohada olib borilayotgan ulkan o'zgarishlarning ko'zgusi desak, mubolag'a

bo'lmaydi. Maskan sharafli nomiga munosib ko'rinish kasb etib, zamonaviy texnologiyalar ta'minoti barobarida o'z tarix muzeyi, kutubxonasi, sport zali, mashq maydoni va muhtasham tadbirlar zaliga ega.



Tadbir Farg'ona garnizoni harbiy orkestri tomonidan ijro etilgan Davlat madhiyasi bilan boshlanib, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning harbiylar bilan uchrashuvlariga oid videorolik namoyishi bilan davom etdi. Shundan so'ng mudofaa vaziri o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev so'z olib, "Armiya bilan xalq – bir tan-u bir jon" shiori bugun hayotimizda to'laqonli o'z aksini topayotganini ushbu tadbir ham tasdiqlayotganini e'tirof qildi. O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi To'lqin Hayit, Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari Minhoddin Mirzo, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, kinorejissyor Hilol Nasimovlarning chiqishlari maktab o'quvchilari va murabbiylari tomonidan qizg'in kutib olindi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Yozuvchilar uyushmasi tomonidan maktab kutubxonasiga 600 dona badiiy kitob topshirildi. O'zbekis-

tonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari, shoirlar Zulfiya Mo'minova, Bobur Bobomurod va Farg'at Xudoyqulovlar ona Vatanni madh etuvchi she'rilaridan namunalari o'qib, muxlislarini qiziqtirgan savollarga javob berishdi.

Badiiy qismida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mehridin Rahmatov ijro etgan culton Jaloliddin monologi farg'onalik san'atkorlar qo'shiqlariga ulanib ketdi.

Uchrashuv yakunida maktab jamoasi vakillari mehmonlarga tashrif uchun minnatdorlik bildirib, bunday tadbirlar tez-tez o'tkazib turilishi nafaqat o'quvchilarga, o'qituvchilarga ham ko'tarinki ruh hamda shijoat bag'ishlashini alohida qayd etishdi.

Tadbir yakunlanib, poytaxtga qaytarkanmiz, kamol topayotgan yosh harbiylarning aql-u zakovati, ustozlarning fidoyiligidan biz ham ilhomlanib, el-u yurt osoyishtaligi yo'lida xolis xizmatimizni sidqidildan davom ettirishga, davrga hamnafas ijodiy izlanishga qaror berdik.

Qamchiq dovoniga chiqarkanmiz, avtulozdagi hamrohlar zahmatkash san'atkor Tohir Saidovdan Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi Amir Temur monologini yana bir bor o'qib berishini so'rashdi.

"Farzandlarga,
Nabiralarga...
Garchi qolib ketayotir qancha niyatim,
Men suronli hayotimdan roziman, rozi...
Buyuk davlat barpo etdim,
Tangranga shukur,
Qo'riqlangiz,
uni Sizga qoldirmoqdaman!"

Iqbol MIRZO



O'ZBEKISTONDA ASTRONOMIYA:

RENESSANSDAN RENESSANSGACHA

Boshlanishi 1-sahifada.

Uning buyrug'i bilan Bag'dodda Shamossiya, Damashq yaqinida esa Kasiyun astronomiya rasadxonalari barpo etilgan. Beixtiyor Prezidentimiz ko'rsatmasi bilan Zomindagi Sufa yassitog'ida barpo etilayotgan Radioobservatoriya va Maydanak tog'idagi optik observatoriya xayolimizga keladi.

Tarixiy manbalarda muhim amaliy ahamiyat kasb etgan o'lchashlarda xalifa al-Ma'mun ham ishtirok etib, bugungi kun tili bilan aytganda natijalarni davlat protokollariga kiritib, muhrlatgan. Balki shuning uchun ham eng muhim ilmiy natijalar qandaydir daftarlarga yozilib yo'qolib ketmasdan keyingi avlodlarga yetib kelgandir.

Hozirda bironta ilmiy natija o'zining aniqlik darajasi ustuvorligini bir necha yil davomida saqlab qolsa katta yutuq hisoblanadi. O'sha, 827-yili Sanjar cho'lida Ahmad Farg'oniy ishtirokidagi Yer meridiani o'lchovi aniqligidan sakkiz asr davomida bironbir kishi o'ta olmagan. Bu davr bekorga Birinchi Renessans davri deb atalmagan axir.

Birinchi Renessansning ikkinchi bosqichi ikki asr o'tib asosan Xorazmda faoliyat ko'rsatgan Ma'mun akademiyasi bilan bog'liq. 2023-yili Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligi YUNESKO shafeligida keng nishonlandi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan anjumanlarda ham Beruniyning homiylari, unga sharoit yaratib bergan hukmdorlar umuman tilga olinmadi. Vaholanki, Beruniy o'z hayotida (ayrim noxush davrlarni hisobga olmaganda) doim hukmdorlar panohida ijod qilgan. U 1004-1017-yillarda ilmiy faoliyat olib borgan dargoh bekorga Xorazm Ma'mun akademiyasi deyilmagan.

Abu Rayhon Beruniy ijodining eng samarali yillari Mahmud G'aznaviy va uning vorislari davriga to'g'ri keladi. Olimning ta'kidlashicha, u ayniqsa, Mahmudning o'g'li Ma'suddan alohida izzat-hurmat ko'rgan. Beruniy o'zining astronomiyaga bag'ishlangan shoh asarini unga bag'ishlab "Qonuni Ma'sudiy" deb nomlagan va shu bilan hukmdorning nomini abadiylashtirgan. Hindistonning mashhur davlat arbobi Javaharlal Neru Beruniyning "Hindiston" asari uning vataniga bag'ishlangan eng buyuk tadqiqot ekanligini qayd etib o'tgan. Agarda Mahmud G'aznaviy Beruniyning Hindiston yurishiga olib bormaganida va unga bir necha yil davomida xotirjam ishlagan sharoit yaratib bermaganida "Hindiston" asari qanday yozilardi?

Neru yana bir buyuk bobokolonimiz Mirzo Bobur va uning nabirasi Akbarshohning mamlakat rivojidadagi xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tgan. Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, boburiy sulton Muhammadshoh topshirig'i asosida g'azna mablag'lari hisobidan Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi rasadxonasi tuzilishi andozasida Dehli, Banoras va Udaypur shaharlarida observatoriyalar barpo etilgan. Bu tadqiqot markazlarida olib borilgan kuzatishlar asosida tuzilgan zijlar hind xalqiga asrlar davomida xizmat qilib kelgan. Zij, aslida, bir taqvimdan boshqasiga tarixiy sanalarni o'tkazish, masjidlar qurilganda qibla tomonini belgilash, aholi punktlarining geografik koordinatlarini aniqlash, Quyosh va Oy tutilish vaqtlarini bashorat qilish va yana ko'plab amaliy masalalarni yechishdagi ma'lumotnoma bo'lgan.

Ikkinchi Renessansning beshigini bo'lgan yurtimizdagi buyuk uyg'onish davri Temuriylar hukmronlik qilgan yillarga to'g'ri keladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'бири bilan aytganda: "Bu - jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir!"

Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabining faoliyati Samarqandni jahon astronomiya markaziga aylantirdi. Uning observatoriyasida original kuzatishlar natijasida tuzilgan yulduzlar jadvali yunon astronomi Gippax tomonidan miloddan avvalgi II asrda tuzilgan katalogdan, ya'ni o'n olti asrdan (!) keyin birinchi aniq katalog edi.

Endi Mirzo Ulug'bek erishgan yuksak ilmiy yutuqlarda uning buyuk bobosi Amir Temurning roliga to'xtalib o'tmoqchimiz. Adolat yuzasidan shuni aytib o'tishimiz kerakki, Amir Temurning harbiy sarkarda va davlat arbobligidan tashqari, uning ilmiy, arxitektura, amaliy san'at va yana bir qator gumanitar sohalarining rivojidadagi roli tarixiy asarlarda keng yoritilgan. U jahonning eng malakali olim-u fuzalolari, san'atkorlari, me'mor, zargar-u kulollarini, umuman olganda, turli sohalarining eng yetuk mutaxassislarini yig'ib, yuksak ilmiy-ijodiy muhitga asos

yulduzlarning Buyuk Tamerlanning nabirasi Ulug'bek kuzatishlari asosida tuzilgan jadvali" deyilgan.

Mirzo Ulug'bek Amir Temurning eng sevimli nabirasi bo'lgan. O'z navbatida Ulug'bekning ham buyuk bobosiga mehri juda kuchli bo'lgan. U otasi Shohrux Mirzo vafotidan keyin atigi ikki yil davomidagina o'z nomidan tangalar zarb etgan. Shuning uchun Mirzo Ulug'bek zarb etgan tangalar numizmatikada o'ta noyob topilma hisoblanadi. O'zbekiston tarixi muzeyi arxivida Mirzo Ulug'bek zarb etgan bir juft kumush tanga saqlanadi. Tangalarda quyidagi yozuv bitilgan: "Temur ko'ragon himmatidan Ulug'bek ko'ragon so'zim". Undan boshqa bironta ham temuriy hukmdor zarb etgan tangalarida Amir Temurning nomini keltirmagan. E'tibor bering, bu original yozuvda "amir" va "mirzo" qo'shimchasi yo'q. Bu dalilidan ulug' adib Maqsud Shayxzoda mohirona foy-

ladi. O'quvchilar uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazish maqsadida "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini barpo etish ham rejalashtirilgan. Umid qilamizki, bu masalani hal qilishda Myunxen texnika universiteti mutaxassislarining ko'magi ayni muddao bo'ladi. Bu choralar mamlakatimiz Rahbarining Mirzo Ulug'bekka va astronomiya yo'nalishiga bo'lgan alohida e'tiboridan dalolat beradi.

Yana bir quvonchli holat uzoq yillardan beri qurilishi to'xtab qolgan Zomin Sufa yassitog'ida-gi bosh antenaning diametri 70 metrli radioteleskopni barpo etish ishlari jadallashganidir. Hozirda Rossiya Fanlar akademiyasi bilan birgalikda mamlakatlar rahbarlarining bu boradagi kelishuvlarini amalga oshirish ustida ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, o'zining astrofizika (osmon jismlarini kuzatish sharoitlari) bo'yicha jahonda yetakchilardan biri hisoblangan



solganiga e'tiboringizni jalb etmoqchimiz. Mirzo Ulug'bek shu muhitda yashab, o'zi ham Sohobqiron g'aznasida to'plangan boyliklar hisobidan madrasalar, astronomiya observatoriyasi qurgan va yana ko'plab boshqa obodonlashtirish ishlarini amalga oshirgan.

Ko'pchilikning e'tiboridan tashqari qolgan tag'in bir gap bor. Mirzo Ulug'bek tuzgan 1018 yulduzning jadvali XVII asrning o'rtalarida ilk bor Yevropada e'lon qilinganida uni hali hech kim tanimas, Amir Temur esa ko'hna qit'ani Boyazid Yildirimdan xalos qilgan sarkarda sifatida mashhur edi. Shunda noshirlar bu holatdan foydalanib, Mirzo Ulug'bekning asarini "Buyuk Tamerlanning nabirasi Ulug'bekning astronomik jadvallari" sarlavhasi bilan chop etishgan. Tarixda ko'plab shaxslarning nom-

dalangan. "Mirzo Ulug'bek" dramasi va "Ulug'bek yulduzi" kinofilmda Shukur Burxonovning jarangdor ovozi bilan bu xitobni ko'p eshitganmiz.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida Prezidentimiz mamlakatimizda tizimli ravishda qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. So'nggi yetti-sakkiz yil davomida ilm ahlining hayotida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Eng avvalo, olimlarning ish haqi to'rt barobar oshirildi. Natijada jamiyatda ilm ahlining mavqei ko'tarildi, iqtidorli yoshlar ilm-fan sohasiga qayta boshlashdi. Ularning jahon yetakchi markazlarida qisqa va uzoq muddatli malaka oshirish harajatlari davlat hisobidan qoplab berilmoqda. Ilmiy laboratoriyalar zaruriy asbob-uskunalar bilan jihozlanib, olimlarning yashash sharoitlariga ham katta e'tibor berila boshlandi. Birgina Fanlar akademiyasi tizimida yosh tadqiqotchilarga imtiyozli shartlar asosida 150 ga yaqin xonadonlar ajratildi. Oilali doktorantlarga Prezident sovg'asi sifatida 25 ta xonadon bepul berildi.

Amalga oshirilgan choratadbirlar natijasida fanimizning salohiyati sezilarli darajada oshdi va olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar yangi sifat darajasiga ko'tarildi.

Ta'lim tizimida ham maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident maktablarida tahsil olgan o'quvchilar kelgusida mamlakatimizning turli sohalarida yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishiga katta umid bilan qaralmoqda. Biz astronomlar Prezident maktablarining birinchisi Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab bo'lganini alohida mamnuniyat bilan qabul qilamiz. Kuni kecha maktab ta'limini rivojlantirish va sifatini oshirishga oid rejalar taqdimoti bilan tanishish paytida Prezidentimiz aynan shu maktabda Myunxen texnika universiteti bilan hamkorlikda, tajriba tariqasida, muhandislik dasturlarini joriy qilish taklifini ma'qul-


Maydanak astronomiya observatoriyasining ham infratuzilmasini turizmni rivojlantirish orqali jahon talabari darajasiga olib chiqish yo'lidagi urinishlar diqqatga sazovor. Lekin bu ishlarni puxta o'ylab amalga oshirish zarur. Aks holda turistik zonalar barpo etamiz, deb Maydanak tog'ining noyob astrofizika putur yetkazib, jahon ilmiy markazlarining Maydanak observatoriyasiga bo'lgan qiziqishini puchga chiqarib qo'yishimiz mumkin.

Maydanak astronomiya rasadxonasi o'zining astrofizika (osmon jismlarini sifatli kuzatish) bo'yicha jahonning eng nufuzli observatoriyalari bilan raqobatlasha oladi. Shuning uchun bu observatoriya bizning milliy boyligimiz deb qaralishi kerak.

Maqolamiz yakunida yana bir muhim gapni aytib o'tmoqchimiz. Bugun tabiiy fanlar sohasida olamshumul natijalarni qo'lga kiritish uchun noyob asbob-uskunalariga ega bo'lishimiz zarur. Bu borada ham Rahbarimiz tomonidan olimlarimizga imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Lekin eng zamonaviy asbob-uskunalar katta mablag' talab etadi. Astronomiya fani ham bundan mustasno emas. Zamonaviy teleskoplar va uskunalar yuzlab million AQSH dollari turadi. Boshqa fanlardan farqli o'laroq, astronomiya sohasining muhim tomoni shundaki, har qanday noyob uskuna yasalganidan keyin uni o'rnatishga maqbul joy topish kerak bo'ladi. Bu jihatdan O'zbekistonda Alloh taolo biza in'om etgan Sufa va Maydanak kabi yuksak astrofizika ega maskanlar bor. Shuning uchun bizning o'lkamizga jahonning nufuzli markazlari o'z teleskoplarini o'rnatishdan manfaatdardir. Bunday imkoniyatdan biz oqilona foydalanib qolishimiz kerak. Shunda Uchinchi Renessansga va buyuk bobokolonlarimizning merosiga munosib olamshumul ilmiy natijalarga erishishimiz mumkin.

Shuhrat EGAMBERDIYEV,
O'zR FA Astronomiya instituti
direktori,
O'zbekiston Respublikasi Fan
arbovi, akademik

BU KITOBLARNI QACHON O'QIYMIZ?



OCHILMAGAN QO'RIQ

Jadid ma'rifatparvarlari ilmiy-madaniy merosi keng qamrovli bo'lib, ularning matbuotdagi maqolalari, hujjatlari, pyesalari nisbatan o'rganilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Biroq ularning qo'lyozma asarlari va toshbosma nashrlari hozirga qadar yetarlicha tadqiq qilinmagan. Bu kabi asarlar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Adabiyot muzeyi, O'zbekiston Milliy arxivi, Milliy kutubxona, "Turon" kutubxonasi va boshqa bir qator muassasalarning nodir fondlarida saqlanmoqda.

Ushbu merosning katta qismi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi mavjud bo'lib, ularni ilmiy muomalaga kiritish davr talabi hisoblanadi. Jadidlar asarlari bizgacha asosan qo'lyozma yoki toshbosma shaklida yetib kelgan. Institut xazinasi 26 ming jildga yaqin ana shunday qo'lyozmalar saqlanadi. Asarlarning asl nusxasi yoki jadid ma'rifatparvarlariga tegishli qo'lyozmalar juda kam saqlanib qolgan. Chunki ular qatag'onga uchraganida asarlari ham yo'q qilingan.

Jadidlar o'z tashabbusi bilan Yevropa mamlakatlaridan Turkistonga olib kelgan bosmaxonalarda kitoblar, gazeta-jurnallar nashr qilishgan. Institut fondida qariyb 40 ming jild toshbosma va nashr etilgan kitoblar mavjud. Ular orasida jadidlarning tarixiy, adabiy, ilmiy, diniy mazmuniga ega bo'lgan bosma asarlari, darsliklar, to'plamlar mavjud.

Jadidlik g'oyasi asoschilaridan Abu Nasr Kursaviy, Shahobiddin Marjoniy va uning shogirdi Ismoil G'aspralning kitoblari ham mazkur qo'lyozmalar xazinasida saqlanmoqda. Xususan, Ismoil G'aspralning 1900-yilda nashr etilgan "Turkiston ulamosi" asarida o'lkamizda yashagan yuzdan ortiq din-u diyonat sohosi vakillari haqida ma'lumotlar jamlangan.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida jadidlar o'zlari o'chgan yangi usul maktabi o'quvchilari uchun darsliklar yozgan. Jumladan, Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab g'ulistoni", "Adabiyot yoxud milliy she'rilar" kabi darsliklari ham institut fondida saqlanmoqda.

Shuningdek, Abdulhamid Cho'lpon va Ashurali Zohiriy tomonidan o'rta maktabning yuqori sinflari uchun tayyorlangan "Adabiyot parchalari" nomli xrestomatya 1926-yilda chop etilgan. Ushbu kitobda Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, G'ayratiy, Shokir Sulaymon va Ashurali Zohiriy asarlaridan parchalar keltirilgan. Munavvar qori Abdurashidxonovning "Yer yuzi", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Risolai jug'rofiyai umroniy" (maktab o'quvchilari uchun geografiyaga oid darsliklar), "Tarixi islom", Abdulla Avloniyning boshlang'ich maktablarning 3-4-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom" darsliklari ham saqlanmoqda.

Institut fondida jadid shoirlarning she'rlari to'plangan bosma nashrlar ham mavjud. Jumladan, Abdulla Avloniy tomonidan 1916-yilda markiklar tomonidan aytilib, kuyga solingan qo'shiqlar matni jamlangan "Mardikorlar ashulasi" asari ham saqlanadi. Shu bilan birga, bu yerda Abdullah Shiddiqning "Juvonmarg", "Mazluma xotin", "Ko'knori", Abdurauf Shahidiyning "Mahramlar", "Eski va yangi maktab", G'oziy Yunusning "Savodsizlik qanday yomon", Usmon Xo'janing "Boy bir-lan kambag'al. Buxoro turmushi", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Burung'i saylovlar" kabi o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy hayotini yorituvchi dramalari bilan ham tanishish mumkin.

Jadidlar tomonidan o'zbek tili va yozuvi masalasiga oid ko'pgina kitoblar yozilgan. Xazinada 21022-ventar raqami ostida saqlanayotgan Munavvar qori Abdurashidxonovning "O'zbekcha til saboqligi" kitobida ona tilimiz grammatikasiga oid 154 ta qoida keltirilgan. Qayum Ramazonning 1919-yilda yozilgan "(Imlo) bitim yo'llari" kitobida imlo qoidalarini isloh qilish haqida so'z boradi. Piskentlik Abdulla Alaviyning "O'zbek yangi alifbosini tuzishda asoslar" nomli asarida o'zbek xalqiga xos shevalar, lahjalar, O'rxun bitiklarida "Devon-u lug'atit turk" asaridagi so'zlar qiyosiy tahlil qilingan.

Jadidlik harakati namoyandasi Sarikboy Oqayevning "Terma kitob, ya'ni xrestomatya" asarida jami 77 ta hayotiy hikoyalari va tarixiy voqealar jamlangan. O'z navbatida, Mulla Mirzo Xayrulloho'qandiyning "Madxali fanni nujum" hamda "Fanni nujumi turkiy" (astronomiya), Qozi Is'hoqxon To'raqo'rg'oniyning "Jomi ul-xutut" (yozuv turlari), Mulla Hoshimjon mulla Azizjon sahohof o'g'lining "Jumboqlar to'plami", Mulla Bekjon Rahmon o'g'lining "O'talar so'zi" (maqollar), "Qifat ul-bashar" (psixologiyaga oid), Mo'minjon Muhammadjonning "Nasoih al-atfol" (pand-nasihatlarga oid) kabi asarlari ham o'z tadqiqotchilari-ni kutib turibdi.

Sharqshunoslik instituti xazinasi jadid bobolarimiz tomonidan arab, fors, rus va boshqa xorijiy tillardan tarjima qilingan asarlar ham talaygina. Xususan, Abdurauf Fitrat buxorolik Hoji Muin ibn Shukrulloho Samarqandiyning (1883-1942) fors tilida yozilgan "Munozara" asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Buxoro madrasasi mudarrisining ajnabiy shaxs bilan savol-javobi tarzida bitilgan mazkur asarda ilg'or yangiliklarga intilish, ilm-ma'rifatga erishish kabi g'oyalar ilgari suriladi. Abdurauf Shohidiyning 1911-yilda bosilgan "Bozori sha'ab" asarida bozor, choynona va mehmonxonalaridagi holatlarni bayon qilish orqali o'sha davrning ijtimoiy-axloqiy manzaralari ochib berilgan. Sharqshunoslik instituti xazinasida taniqli jadid G'oziy Yunusning 1918-yilda nashr qilingan "Turma xotirasi yoxud haqsizlik kassofati" asari birato'la uchta - 12832, 14964, 18991-raqamlari ostida saqlanadi.

Yuqorida tilga olingan qo'lyozma va toshbosma asarlar jadid ma'rifatparvarlarining Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanib qolgan merosining bir qismi hisoblanadi. Kelajakda bu dargohda ularning boshqa asarlari ham kashf etilishi mumkin. Ularni izlab topish, o'rganish va ilmiy muomalaga kiritish va shu orqali jadidlarning ibratli faoliyati, g'oya va maqsadlarini yanada kengroq ochib berish yosh tadqiqotchilar, barchamizning eng muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Bahrom ABUDHALIMOV,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
vitse-prezidenti



HIKOYA

G'aybi g'altakning echkisi egiz tug'madi. Lekin Toshkentdan uning nomi bitilgan xatjild keldi. Odamlar xat yozishni unutgan zamonda faqat xal-kampirlarga nafaqa tarqatish bilan andarmon pochta ham hayron, quvonchdan konvertni boshi uzra ko'tarib, suyunchi so'radi. G'aybi g'altak bir tomsuvoq hasharida ko'maklashishga va'da qilib, xatni qo'lga oldi.

Ko'chada o'tgan-qaytgan o'zicha har xayolga bordi. Birov u dedi, birov bu dedi. Xatjild ochilguncha sabri chidamadi. Fol ochishdan to'xtamadi. G'aybi g'altakning eldan yashiradigan siri yo'q. Soliqdan qarz joyi ham yo'q. Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich. Odamlarning ko'zicha konvertni yonboshidan yirtidi. Avval pichirlab, so'ng ovozi qo'yib o'qidi. Ikki enlik noma adog'iga yetar-yetmas, tomog'iga bir nima tiqildi. Ko'z yoshini tiyayin dedi, duvillab to'kila berdi.

Ana! Qishloqqa gap topildi. Otam zamondan beri gurunglar qizimayotgandi o'zi. Endi to'rt kishining boshi birikkanda davra shundan qo'r oladi. Ayniqsa, to'y-hashamda bozor-o'char, oliq-soliq muhokamasidan ortganda hangomaning nishabi G'aybi g'altak tomon to'riladi. Ammam o'g'lini uylantirayotganda sabzi-to'g'rariga borib o'zim ham guvoh bo'ldim.

– Qishlog'imiz tarixida hali bundaqasi bo'lmagan, – dedi Jonuzoq malim soqolini silkillatib. – G'aybiddinboyga Toshkentdan "Shunday o'g'il o'stirganingizga rahmat!" degan xat keldi. Imzosi, muhri bilan. Menga ishonmasalaring, borib ko'ringlar, – yonboshlagan ko'yi o'ng qo'li bilan ishora qiladi, – uyining to'rida iluvli turibdi.

Shivir-shivir: "G'aybiddin boy?!", "Kim, kim?", "G'aybi g'altakmi?!". Jonuzoq malim jo'rttaga sukut saqlaydi, orada xo'rillatib choy ichadi.

– Bugundan keyin bu qishloqda G'aybi g'altak yo'q, G'aybiddinboy bor! – salmoqlab yana gap boshlaydi. – Shunday o'g'il o'stirgan odamni Toshkentda e'zoz qilibdimi, biz ham hurmatini joyiga qo'yuvimiz kerak.

Ayrimlar "Ee, umi?!" degandek miyig'ida kuladi.

– To'g'ri, G'aybiddinboy maktabda matematikadan misol-masala yecholmay, mening kaltagimdan qashqatayoq bo'lgan. O'zi o'qimasayam, bolalarining barini o'qitdi. Buning uchun eski g'altagini g'iyqillatib ko'ringannikida ishladi. Shuytib bolalarini oyoqqa qo'ydi. O'sha payt sen bilan men nima qilayotuvdiki? – domla gurungning obdovini bu tomonga burib, miyig'ida kulganlarni nishonga oladi. – Sen bilan men topganimizga

PAXMOQDAN CHAQMOQ

tom solayotuvdik. G'aybi g'altak bizning hovlimizda ishlayotuvdi. Topganimizning yuzdan birini unga ham tomizayotuvdik. U shu tomizg'i bilan bolalarini o'qitayotuvdi. Oxiri kim yutdi?!

Ayrimlar chuqur xo'rsinadi, ba'zilarning ensasi qotadi. Parmon pakki gapga aralashadi:

– O'sha G'aybiddinboyningizning jo'ralari yig'ilib nima qilibdi?! Bu yog'ini ham gapirganda!

– Nima qilibdi?

– Uch kun dumalab ichibdi!

– Kallasi yo'q-da.

– Undan ko'ra o'rtada pul tashlab, ustudentga noutbuk opbermayma?! – Pak-

orqachayin yiqilib qaytadi", deb masxaralovdi hamma. Mana, bilimi bilan grantda o'qiyapti, – yigitchaning suhbatga aralashgani davraga yoqmaydi, bee'tibor eshitadilar. "Sen-chi?" degandek o'qrayib qaraydi birovlar.

– Yutarkansan, bir yo'la "Molibi" yutmaysanmi? Vo-ho-ho... – Vahob babaqning haziliga o'zidan boshqa hech kim kulmaydi. Kurkaning jig'ildoniga o'xshash bo'yni liqillab ketadi. Ko'rik-tanlovni lotoreyaday bir nima deb o'yladiyov. Og'zini to'ldirib "mol" va "ibi" deyishi nash'a qilib, ayrimlar tirjayib qo'yadi.

– Bo'lmasa, boshqa foydali ish qilsin edi. Ular u yoqda yutuq yuvadi. Keyin bu yoqda,

– Yo'q, Habi... Mengli bovaning kenjasi. – Uning bolalari maktabga endi chiqdik-kul!

– Majid so'fning o'g'lini aytyapti...

Parmon pakki g'ala-g'ovur tinguncha indamay o'tiradi. Birovi ham o'zidan eshitaylik, demaydi-ya. Bari o'larmonlik qilib gapini o'tkazish payida. Oxiri toqati toq bo'ladi:

– Oynisa mening uchinchi qizimma?!

Majid akaga kelin bo'ganma?! Ikkinchi o'g'liga, Karimga... Bo'ldi-da!

– Mayli-mayli, janjaldan gapiring, janjaldan...

– Xullas, sinfdosh jo'ralar G'aybi... boynikiga borib, qo'yarda-qo'ymay ichgan. Ustudentning kistasiga bir-ikki so'm solib o'quvumidag vaqtda, deb so'raydigan odam yo'q. Keyin Karim kuyov uyga kelib, qizimizni to'balagan. Nega sen geniy tug'maysan, deb.

– Geniyni ena tug'armikan, ota tarbiyalaydi-da! – deydi Jonuzoq malim chap yonboshidan o'ng yonboshiga ag'darilib. Aytgan gapiga biron o'ylanib qoladi. – Lekin qars ikki qo'ldan, degan gaplar ham bor.

– Shu adolatdanmi?! – Parmon pakki qizisha ketadi. – Tashakkurnomani G'aybi... g'altak olsa-da, kaltakni bizning qiz yesa...

Pichoqlar sabzixataga qattiq-qattiq tega boshlaydi. Ikkiora-uchora shivir-shivir oyoqlanadi. Parmon pakkingning shu odati qolmadi-da. Qizlari-yu kuyovlarining o'rtasiga tushgani tushgan. Balki, bittagina o'g'li bo'lganida, bittagina kelin olganida... tushunarmidi?!

Sekin o'rnimdan turaman, tashqarilayman. Daraxtga omonat osig'liq chiroq arang yoritib turgan o'choqboshida ham shu g'ishava ekan.

– Qishlog'imizning obro'yi-da! – deya gapini ma'qullayotgandi Qurvon shildir.

Qozon atrofi tongda osh tortiladigan stol-stulli davradan oq mato bilan ajratib qo'yilibdi. Biqqi oshpax yaxna go'sht pishiryapti, archa hidi... Xontaxani qo'rg'alab yosh-yalang turibdi. Qurvon shildirga o'xshagan otam qatorilari ham bor. Bitta "yarimta"ni tik oyoqda maydalayaptilar.

– Qani, urdiki! Qishlog'imizda shundaqa bollar ko'payaversin!

Bu yer ham menga to'g'ri kelmas ekan. Yetmasdan ortimga qaytaman, ko'rib qolmaganlari ma'kul. Yangalar, qizlar zinadan ayvonga ko'tarilib, hovliga tushib yuradi. O'ng qo'ldagi uyga kirib-chiqadi. Haytovur, momolar, amma-yu xolalar shu yoqda bo'lsa kerak. Ichkari mo'ralayman:

– Assalomu alaykum!

Keng uy to'rida choy ichayotgan, quyi-



ki eski hosilotligiga borib, nuqul foydani o'ylaydi.

– Uning noutbugi bor. Bultur tanlovda yutuvdi, – sabzi to'g'rayotgan yigitcha gap qotadi. Sinfdoshini maqtashayotganidan ichiga sig'may ketadi.

– Haa, "O'g'lim Germaniyada matematikadan oltin medal oldi. Kutib olgani aeroportga chiqamiz", deb kimdan qarz ko'tarib, kimdan yangi kiyim tilanib yuruvdi. – Parmon pakki atayin yerga urib gapiradi. – O'shanda yutganmi noutbukni?

– Yo'q, u voqea burnog'i yili edi. Bunisi bultur... O'zi, Alisher Toshkentda o'qiyman deganida "Katta institutlarga kattalarning bolalari kiradi. Sendaqalar imtihondan

bizning qudanikida janjal bo'ladi, – Parmon pakki gapni aylantirib kelib, o'z dardiga ulaydi.

Davra sergak tortadi. Chekka-chekka o'zaro gaplashib o'tirganlar jimib qoladi. Sabzixatga va pichoqlarning taqillashi ham tinadi.

– Bizning kuyovimiz G'aybi... – "g'altak" deb yuborishiga sal qoladi: – G'aybiyoqqa sinfdosh bo'ladi-da...

– Qaysi? Kattasimi?

– O'rtanchasi.

Pakkingning to'tovmi, beshov qizi bor. O'rtanchasi qaysi ekan, kimga tushgan ekan? Hamma o'zicha tasmollaydi.

– G'appor akaning to'ng'ichima?

SHE'RIYAT



Sanobar MEHMONOVA

1981-yilda tug'ilgan. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetini hamda O'zMU qoshidagi Oliy adabiyot kursini tugallagan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. "Yashil ibodatlar", "Xayyomona xo'rsiniqlar", "Fano sarhadlari" she'riy to'plamlari chop etilgan.

O'LMASMAN

Dilimga Ishqingni yopsang, o'lmasman, Shu ishqdan o'zingni topsang, o'lmasman. O'larman va agar o'lar chog'imda – Kelib ko'zlarimdan o'psang, o'lmasman. Bu gulgun tuyg'udan mast bo'lib kelsang, Poyimga yerdanam past bo'lib kelsang – Men bilan o'lmoqqa qasd bo'lib kelsang – Bag'rimga jon kabi to'lsang, o'lmasman. Samolar azmiga seni chorlasam, Sabolar nazmiga seni chorlasam, Layolar bazmiga seni chorlasam, Bormay ko'zlarimda qolsang, o'lmasman.

Sen bergan umrni oshufta kezib...

Umr o'tar yoz-u qishli, qirovli,
Hol bormi
Holing ne, deya so'rovli.
Ko'ksimda bir taft bor o'tdan olovli –
Shu taftdan bir hikmat topsang, o'lmasman.
Qarorim qolmadi, to'zimga hayda,
Bir so'z aytib borsam, so'zimga hayda.
O'zimga kelayin, o'zimga hayda –
Keyin shu jonimni olsang, o'lmasman.
Ming yilki to'kilar yoshim duv meni,
Jin chaldimi yoki pari dev meni.
Sev meni, sev meni, yana sev meni –
So'ng qancha firoqqa solsang, o'lmasman.
Ko'ksimga hajringni yopsang, o'lmasman,
Unga ajal atrin sepsang, o'lmasman,
O'larman va agar o'lar chog'imda –
Kelib ko'zlarimdan o'psang, o'lmasman.
Ruhimga ishqingni yopsang, o'lmasman.

Shu ishqdan Xudoni topsang, o'lmasman...

Bir g'urubda dit elgach xato,
Bir qutbda adashdi osmon.
Endi ishqman, o'lgunimcha to,
O'lgunimcha bir ishqdan mastman.
Men – kunlarga yetmagan bir tun,
Kechalarda kun kechgan xatar.
Yolg'izgina oshiq ko'nglimni
Yengmoqqa yo'q bir ma'shuq Kadar.
Sog'inchilarim sog'indi seni,
Sog'inchlarga asir tushganman.
Yomg'irlarning iligidan yeb,
Daraxtlarning qonin ichganman.
Shundan dilbar ko'rinar olam,
Cho'kib ma'sum tarovatiga.
Shundan har tong some'man men ham
Maysalarning ibodatiga.
Shundan buyon kengayadi yer,
Shundan buyon torayar osmon.
Eh, yulduzlar nima desa der,
Men tuproqning hididan mastman.

Tili bo'lganida so'zlay olganida
Eng zo'r shoir bo'lardi Daraxt.
Agar bilganida –
Havodan ham o'zga daftar borligini,
Osmondan ham og'ir zalvor borligini
Qo'li bo'lganida chizardi Daraxt.
Yig'lab havolarga yozardi Daraxt.
Dili bo'lganida
Gullamoq va xazon bo'lmoqning oralig'ida
Bir ulkan muhabbat ulkan ayriqliq
Borligini bilganida edi
Voh, aqlidan ozardi Daraxt.
Har bir yaprog'iga yozardi Daraxt,
Men kabi to'kilib tonardi Daraxt,
Bu ishqda gurillab yonardi Daraxt.
Yaxshiyam
Daraxt emas,
Odam etganingga shukur
Xudoyim!

MUNOJOT

Vaslingdan mosuvo kunlarni kechdim,
Ey, bir xor, bir rasvo kunlarni kechdim,
O'lmaiday bedavo kunlarni kechdim,
Kechib o'tarmanmi yodingni, Egam?
Falak nayrangidan ruhim ichmadi,
Ko'nglimni qush qildim, bir bor uchmadi,
Bir qoshiq qonimdan dunyo kechmadi,
Kechib o'tarmanmi ishqingni, Egam?
Fano bog'laridan yoproq to'kilar,
Har yaproq bandida bir oh to'kilar,
Boq, jonim, shu lahza Alloh to'kilar –
Kechib o'tarmanmi nuringni, Xudo?
Nigoh solsam ko'zim yo'llarga tushdi,
Dilin topolmagan, dillarga tushdi,
Zanjirlarga tushdi, g'ullarga tushdi,
Kechib o'tarmanmi erkingni, Xudo –
Ki qandoq vasf etay ko'ringni, Xudo?
Bir nurman, falakdan yerga yog'ilgan,
Meni deb ochilmish baxtning chiroyi.
Butkul devonaman, butkul xummorlig' –
Quchib o'tarmanmi arshingni, Egam?

Dardimni she'r qildim ko'ksimga yozib,
So'rma hech, bir sevdim aqlimdan ozib,
Sen bergan umrni oshufta kezib,
Kechib o'tarmanmi yodingni, Xudo,
Sen kechgil men kabi dodingni, Xudo!

Rangin dunyongizda menga nima bor,
Kiyganim adrasmi yo ipak shoyi.
Ruhimda yig'laydi darveshona mung –
Men bir xirgoyiman, hazin xirgoyi...
Ishqim – Xudoyimga bitgan maktubim,
Boshimda ming savdo, dilbar savdoyi.
Kel, meni shivirla azizim –
Men bir xirgoyiman, go'zal xirgoyi...
Sen bilan birgaman, ey pokiza so'z,
Garchand yuragimda sukut anvoyi.
Hargiz anglamading, sezmadig afsus –
Men bir xirgoyiman, qadim xirgoyi...
Mensiz sabil qolar kuyularing, evoh,
Ohangning almoiy-aljoiy.
Tangrim Senga Mendan bergandi saboq –
Men bir xirgoyiman, buyuk xirgoyi...
Yam-yashil til bilan roz aytdi Bahor,
G'unchalarga yoqdi shamolning poyi.
Buncha "Nag'ma"larga ayting, nima bor –
Men bir xirgoyiman, sodda xirgoyi...
Ko'zlarimda yig'lar go'zal hodisot,
Men husnning shohi, mehr gadoyi.
Bag'rimdan qon yangilig' kuy sizar hayhot –
Men bir xirgoyiman, buyuk xirgoyi...
Shaklidan ming chandon go'zal shamoyil,
Ruhida bazm etar sirlar anvoyi.
Rizh bil kuylab ko'ring, degaysiz qoyil –
Men bir xirgoyiman, suyuq xirgoyi...
Chig'anoqqa kirib, durga aylangan,
Zulmatni meh etib, nurga aylangan,
So'ng'ra yerga tushib,
she'rga aylangan –
Men bir xirgoyiman, nafis xirgoyi...
Bir nurman, falakdan yerga yog'ilgan,
Meni deb ochilmish baxtning chiroyi.
Sening hajring bilan ruhim bo'g'ilgan –
Men bir xirgoyiman, munis xirgoyi...

Sen sira o'ksima, devona dilim,
Bir qo'shiq bo'lamiz, ISHQday anvoyi.
Pichirla, sevgilim, kuyla, sevgilim –
Men bir xirgoyiman, latif xirgoyi...
Nafas yangilig' yutdim, ishqingni qoyim,
Ruhimga shavq kelmiş, sirlı – yovvoyi.
Bir buyuk avjlariga ko'tar, Xudoyim –
Men ham xirgoyiman, sokin xirgoyi...
Bir suyuq mavjlariga ko'tar, Xudoyim –
Men bir xirgoyiman, buyuk xirgoyi...

Men kimman?
Gulning yaprog'iga Xudo bitgan xat,
Tuproqqa havola qilingan tanman.
Ming yilki Oshiqlar angloilmay diqqat –
Ishq deya atalgan eng sirlı fanman.
Men kimman,
Osmonning zaminga ekan,
Ahi Ishqqa hadya quyoshiman men.
Zulayhoning Yusuf hajrida to'kkan –
Sevgiga aylangan ko'z yoshiman men.
Men kimman,
Mavloni Rumiyning ichkin nolasi,
Shams Tabriziyning faryodiman men.
Onamning eng sodda, dono bolasi –
Yaratganing go'zal ijodiman men...
Men kimman,
G'unchalar Ishq tukkan mahal
Alloh, deb oh chekkan nidosiman men.
Ming yilki bir dilning qoshida mahtal –
Yoronlar, sog'inchning adosiman men...
Men kimman,
Majnunning samoviy ohi,
Laylidan olmagun qasosiman men.
Hazrati Ayyubning ijobat chog'i –
Ijobat etilgan duosiman men.
Shu duo xayridan dunyoga kelgan –
Dunyoning samimiy dunyosiman men.
Har lahza ming to'lib, ming bor to'kilgan –
Ko'ngilning bir ma'sum daryosiman men.
Ey falak, dastingdan dod demasman, yo'q,
Har neki ko'rguzding – shaydosiman men.
Taqqiri azalning gul bilan bitgan –
Sanobar atalmish inshosiman men...



MUSHOHADA

Grin-karta nimasi bilan dunyo aholisining e'tiborini tortmoqda? Nima uchun AQSh hukumati bu kabi uzoq yillik malakaga ega loyihani izchillik bilan davom ettirmoqda? Grin-karta yutug'ini qo'lga kiritgan o'zbek(lar)ning taqdiri Amerikada qaysi nuqtadan boshlanadi? Grin-karta lotereyasi sohiblari Amerika fuqaroligini qo'lga kiritadimi? Arosatdagi fuqarolik odamlarga qanchaga tushmoqda?

Amerika ba'zilar uchun orzular mamlakati ekani bor gap. Chunki "Amerikaga ket-yapman" degan gapni eshitganda odamlar hech bo'lmaganda "O'h-ho'o'o" deya hayratga tushadi. Har yili grin-karta o'ynaladigan oktyabr-noyabr oylari intiqlik bilan kutiladi. So'rovnomaga o'tkazganimizda shu ma'lumot aniq bo'ldiki, bir odam hatto o'n to'rt bor grin-karta lotereyasini o'ynagan. Va nihoyat, o'n to'rtinchi urinishda yutuqni qo'lga kiritgan. Yutuq chiqib qolganda esa, har qanday oliy ma'lumotli yoki yuqori lavozim egasi bo'lganlar ham ummon ortiga o'tlanadi. Ular orasida atocqli san'atkorlar-u taniqli jurnalist va aktyorlar ham borligi fikrimizning dalilidir.

Rivojlanmagan mamlakatlar fuqarolari uchun Amerikada doimiy yashash huquqini beruvchi ushbu grin-karta loyihasi 1940-yili ta'sis etilgan bo'lib, yildan-yilga rivojlandi, keng yo'yildi, ohanрабо kabi boshqa millat va killarini o'ziga jalb etdi. Bir savol paydo bo'ldi, o'z fuqaroligini bermaydigan (grin-karta)ning tartib-qoidasida bu qat'iy belgilangan, faqat o'qish, ishlash va yashash huquqini tuhfa etuvchi ushbu lotereyadan Amerikaga nima naf? Ya'ni, odamlar grin-karta yutadi, Amerika nima yutadi? Aslida kashf etilishi muhojir sayyoh badaliga tushgan ushbu mamlakat har yili 55 mingdan ortiq kishiga grin-karta yutug'ini tuhfa etadi.

Darhaqiqat, dunyoning turli davlatlaridan kuchga, g'ayratga to'lgan yoshlarni Amerikaga jalb qilish, ishchi kuchini ko'paytirish, kelgan muhojirlarning ham kuchidan, ham bilimidan foydalangan holda Amerikaday aristokrat mamlakatning nufuzini yanada oshirish bu loyihaning bosh maqsadidir. Axir, Amerika asli kelib chiqishi italiyalik ispan millatiga mansub Xristofor Kolumbrning sa'y-harakatlari bilan kashf etilgan tarixiy haqiqatligini inobatga olsak, bu mamlakatning ovro'pacha beshigini avval boshdan muhojirlar tebratgani ayon bo'ladi.

Bugun Amerika aholisi uch yuz o'ttiz uch milliondan ortiq deb belgilangan bo'lsa, uning sakson to'rt milliondan ko'prog'ini muhojirlar tashkil etadi. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida yoritilgan materiallarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2010-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida 27 ming 563



Yoki grin-karta lotereyasi zamonaviy qullik bozori hujjatimi?

nafar o'zbekistonlikka grin-karta berilgan. Xususan, 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra 5000 dan ortiq o'zbek ushbu o'yinda yutgan, 3100 nafari viza olishga muvaffaq bo'lgan.

Albatta, Amerikada yashash huquqini qo'lga kiritgan orzmand fuqaro o'zida yo'q shodlanadi, afsonaviy o'lka tomon yo'lga tushadi, orzular ro'yobidan mast bo'ladi. O'zini afsonaviy Susambilga oyog'i yetgan kabi his qiladi. Biroq grin-karta – hamma qiyinchiliklar shu nuqtada tugaydi, deganimi?! Amerika faqat baxt va shodlik va'da beruvchi mamlakatmi, degan savollar odamni o'ylatadi.

To'g'ri, Amerikaga borgach, u yerda hech kimni ochil dasturxon-u tekin uchar gilamlar kutib turgani yo'q. Chunki Amerika departamenti faqat u yerda yashash huquqini beradi, uy-joy, ish va boshqa imtiyozlarni tuhfa etmaydi. Turli millatlar, turfa madaniyatlar jamlangan mamlakatda ishlash, o'zligini saqlab qolish oson emasligi ham kunday ravshan. U yerda uzoq masofaga yuk tashuvchi haydovchi, farrosh, kutubxonachi, tikuvchi, ishchi, sotuvchi, keksalarni parvarishlovchi, quruvchi, oshpaz bo'lib ishlayotgan hamyurtlarimiz bor. To'g'ri, ular AQShday iqtisodiy qudratli mamlakatda O'zbekistonda ishlab topgan oylik maoshi bilan solishtirganda ko'proq topayotgan bo'lishi mumkin. Qolaversa, u yerga ketganlarning fikricha, sayyohlik malakasi shakllanadi, yurt ko'radi, odam taniydi.

Lekin bir savol odamni o'ylantiradi: har yili grin-kartani qo'lga kiritib, AQShga o'tlgan necha minglab oilalar farzandlarining taqdiri, ularning kelajagi nima bo'lyapti? Ketganlarning hammasi ham farzandlarini o'zbekligiga, o'z tarixiga, tiliga, madaniyatiga mehru-

muhabbat bilan tarbiyalay oladimi?

2015-yili Amerikada xalqaro yozuvchilar dasturida ishtirok etganimda bir necha o'zbek oilalarining farzandlari o'zbek tilini bilmaligidan nolib gapirgan, menga Amerikada qolib, o'zbek oilalarining farzandlariga o'qituvchilik qilishimni taklif qilishgan edi. Tabiiyki, qabul qilmaganman, yurtga qaytganman. Bu borishda ertaga tilni, o'zbekligini unutgan na amerikalik, na o'zbekistonlik bo'lgan gibrid bir millat dunyoga kelmaydimi? Nima bo'lganda ham genlarning o'z tomirlaridan o'lashtirish, madaniyatlarining, ma'naviy qadriyatlarining mo'rtlashuvi taraqqiy etishi bor gap.

Demak, bugungi kungacha taxminan 30 mingdan ortiq hamyurtimiz "sehrli diyor"da yashayotgan ekan, xo'sh, ularning ahvoli-ruhiyasi qanaqa, degan savol odamni o'ylantiradi. Ularga "sim-sim" eshiklari-ku ochildi, bu bilan ular o'z nafs karvonlarini orzusi dagiday qondirishga ulgurildilarmi? Hamyurtlarimiz pul hamma muammoni bartaraf eta olmasligiga amin bo'lishganmi? Aks holda AQShda istiqomat qilayotgan qanchadan-qancha odamlarimiz hayotida ko'ngilsizliklar, fojiali oqibatlariga olib kelgan falokatlar ro'y bermagan bo'lardi.

Xususan, 2024-yilning mart oyida Sarvar Ollaberganov sobiq xotini Durdona Sultonovani to'pponcha bilan otib o'ldirgan, ikki nafar farzandi esa yetim qolgan. Er-xotin ikkovi ham Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetini tamomlaganligi ma'lumotlar orqali ochiqlandi.

Xuddi shu kabi yana bir qayg'uli holat mart oyida ro'y bergan edi. Nyu-

York politseysiyasi qirq olti yashar o'zbek millatiga mansub Jamshid Ne'matovni otib o'ldirgan. Ne'matov 8-mart kuni turmush o'rtog'i Amirani pichoqlagach, yetib kelgan politsiyaning ogohlantirishiga qaramasdan ayoliga pichoq tiqishda davom etgan va natijada politsiya o'qi tufayli u hayot bilan vidolashgan. Ayol esa shifoxonada jonlantirish bo'limiga yotqizilgan aytiladi.

Xo'sh, bu kabi o'ta uqubatlari voqealarni qanday izohlash mumkin? Qolaversa, bu kabi holatlar nafaqat Amerikada, balki chetda yashayotgan aksariyat vatandoshlarimiz orasida ham ro'y bermog'chi. Modomiki, vatandoshlarimiz mo'may daromad izlab Amerikaga ketgan ekan, daromadni-ku topmog'chi, biroq baxtni, xotirjamlikni, osoyishtalikni topa olishyaptimi? Buning nomi to'qlikka sho'xlikmi, o'ziga xon, o'ziga beklikmi va yoki demokratiya jodusimi bu?

Shuningdek, keyingi yillarda Meksika orqali AQSh chegarasini noqonuniy buzib kirayotganlar va suv yo'li orqali o'tayotganlar timsohlarga yem bo'lgan o'zbeklar haqida ijtimoiy tarmoqlarda xabarlar tarqaldi. Aynan yosh shoira qizning Amerikaga Meksika orqali noqonuniy ravishda kirib, tikuvchi bo'lib ishlayotgani haqida ma'lumotga egamiz.


O'zbekning nima uchun chet elga ish-tiyoqi bunchalar baland? Nega odamlar yoppasiga Amerika xumoriga chalingan? Vatandoshlarimiz bu qutqudan qutulib o'z vatanimizni, o'z yurtimizni rivojlantirish haqida o'ylaydigan fursat yetib kelmadimi?

Axir, o'tgan asr boshlarida turkistonlik millat oydinlari jahon kezgani, Ovro'pa-yu Osiyoni tirikchilik dardida emas, ma'rifat hasratida oralay, millat dardiga darmon izlagani hammamizga ma'lum-ku. Jadid bobolarimiz Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, Hamzalarning chet el taassurotlari bitilgan yo'lnomalari nahotki bizga saboq bo'lmasa. Germaniyaga o'qishga jo'nab ketgan yetmish nafar talaba yurtda ommaviy repressiya shitob davom etayotganiga qaramasdan o'z yurtiga qaytib kelgani ko'p narsani anglatadi, meningcha.

Amerikacha "uchburchakli qullik tizimi" ikki yuz yildan ortiqroq vaqt davom etib, 1865-yilgacha, ya'ni AQSh prezidenti Avraam Linkoln davrigacha hukm surgani yaxshi ma'lum. Lekin bugun tobora muhtasham, tobora sehrli tus olayotgan grin-karta lotereyalari qullik bozorining zamonaviy ko'rinishi emasmi, degan o'y kechadi kishi ko'ngilidan. Bu mamlakatni boyitayotgan, qudratini ma'lum darajada belgilayotgan, mavqeini ko'tarayotgan vositalardan biri grin-karta lotereyasi emasmi? Qullik bozorlarining faqat tarixda qolgan rost bo'lsin, ilohim!

Go'zal BEGIM

TILBILIM



YUZIM SHUVUT BO'LDI

Uyaldim, sharmanda bo'ldim, aybim ochilib qoldi, odamlar ko'ziga qarolmay qoldim, xijolat bo'ldim.

"Yuz shuvut bo'ldi", deganda taxminan yuqoridagi ma'nolarni tushunamiz. Xo'sh, "shuvut" o'zi nima? "Shuvut" (ba'zi shevalarda "chuvut") so'zi faqat "yuz shuvut" iborasida saqlanib qolgan va bizgacha yetib kelgan. Biroq bu so'zning o'zi alohida qanday ma'noga egaligi, kelib chiqishi haqida hozirgi lug'atlarda ma'lumot yo'q. Xo'sh, yuz shuvut bo'lish holati qanday kechadi: deylik, yuz qizarib ketadi yoki sharmadlik darajasi o'ta kuchli bo'lganda kishi yuzi ko'karishi, bo'zarihi, hatto oqarishi mumkin. Xullas, hayajondan kishi yuzida rang o'zgarishi sodir bo'ladi.

Aslida, "shuvut" ("chuvut") juda qadimiy so'z bo'lib, ma'nosi "rang" ekanligi haqida bobomiz Mahmud Koshg'ariy "Devon-u lug'otit-turk"da shunday ma'lumot beradi: "qizil jo'vo't – qizil rang, al jo'vo't – ol rang, kok jo'vo't – ko'k rang, jashil jo'vo't – yashil rang, sarig' jo'vo't – sariq rang, zirnix (oltinugurt kukuni). Bilgilki, jo'vo't (chuvut) so'zi bu ranglarning hammasi uchun umumiy so'z bo'lib, so'ng unga ayrim ranglarni anglatuvchi so'zlar qo'shilib, farq qilinadi" (DLT.III tom. T.: "Fan". 1963. 176-bet).

Demak, qadimgi turkiya "chuvut" ham "tus" kabi "rang" ma'nosini bildirgan. Keyinchalik ko'pgina turk lahjalariga forscha "rang" o'zlashgan, ammo "chuvut" unutilgan, faqat "yuz shuvut"da saqlanib qolgan.

Abduvohid HAYIT

QADRIYAT

1979-yili maktabni bitirib, Toshkent davlat universitetiga hujjat topshirgach, imtihonlarga tayyorlanadigan kunlar orasida Chig'atoy qabristonini ham ziyorat qilishni rejalashtirdim. O'sha paytlarda "Axborot" televidion dasturida mashhur insonlarning vafoti haqida xabar berilganida marhum Chig'atoy qabristonida dafn etilishi ham aytib o'tildirdi.

Serdaraxt, yo'laklari asfalt qilinib, ikki chetida gullar ekilgan qabristonning mashhur kishilar uchun ajratilgan qismida G'afur G'ulom, Shayxzoda, Oybek, Abdulla Qahhor kabi adiblar, Abror Hidayotov singari aktyorlar, dongdor akademiklarga bag'ishlangan yodgorliklar archalar soyasida, odam bo'yi atirgul butalari qurshovida turar edi.

Ziyorat chog'ida qishlog'imiz qabristoni esimga tushdi: hammayoqni yantoq, shuvoq, tizza barobar xas-xashak bosib yotgan, oyog'ing ostidan ilonlar, kaltakesaklar har tomonga qochadigan ikki-uch getkarlik fayzsiz hudud... Sug'oriladigan qismida o'riklar ostiga beda ekilgan, mayitlar qo'yiladigan qismida biror daraxt tugul, buta ham yo'q.

Ilgari qishlog'imiz kichikroq edi, yilda uch-to'rtta janoza bo'lib turardi. Shu siyrak janozadan keyin o'tadigan marhumning yettisi, qirqi, yili, albatta, o'ta yig'i-sig'ili bo'lardi. Uymiz adir ostida edi, tong saharlab ko'tarilgan yo'qlov-yig'ilar aks-sado berib, adirlar ichida janoza bo'layotgandek tuyulib, vahima uyg'otardi.

Harbiy xizmatdan qaytganimda onam vafot etgani uchun deyarli har kuni mozori-



QISHLOQ QABRISTONI

ga borishimga to'g'ri kelgan. Chunki volidamning qabri boshida xuddi Chig'atoydagi singari atirgul ekan edim. Gullar qurib qolmasligi uchun ishdan qaytgach yoki tong saharda bir chelak suv ko'tarib o'sha yoqqa yo'l olardim. Tikon-u ilonlardan himoyalaniish uchun oyog'imga etik kiyib olishimga to'g'ri kelardi. Mozor shayxi bir kuni qabrlar oralab suv tashiyotganimda o'lganlarni oyoqosti qilish yaxshimasligini aytib, ekilgan gullarimni o'zi sug'orib turishga va'da berdi. Qabr ustidagi qurigan xas-xashaklarni olib tashlaganimni ham ma'qullamay, go'r ustida chiqqan hamma narsa shu marhumniki, dedi. Bunday qarash o'sha paytlari urf bo'lgani uchun qabrlarning ustini qurigan o't-o'lan bosib yotardi. Tosh qo'yilgan qabrlar kamdan-kam topilar, asosan tepasiga eski chinni, sopol tovoq, shokosa to'karib qo'yilgan, bir cheti uchgan choynaklarning burniga yasama gullar tiqib qo'yilgani bois bir qarashda qabriston eski-tuski idishlar makoniday taassurot uyg'otardi.

Mozorning eski qismidagi go'rlar deyarli cho'kib, o'pirlib tushgan. Eng boshida biror yuz yillar burungi ikki ko'hna qabr uzra marmar va pishiq g'ishtdan tiklangan sag'ana nurashga yuz tutgan, qabrlar kimga tegishiligi yozilgan arabcha imloga birovning tishi o'tmasdi.

1985-yili mozorlarni obod qilish tashabbusi boshlanib, xalqni hasharga chaqirishdi. Biz ham qo'llarda o'roq, ayri bilan eski qabrlar uzra yurib, yantog'-u shuvoqlarni o'rib, qurigan xaslarni uyib ketaverdik, ortdagilar ularni tashqariga tashishdi. Mozorning adirga tutash qismini daraxt, jangal bosib ketgandi, qurigan shox-shabbalarni tozalash ham kun bo'yi davom etdi.

O'shandan beri o'tgan yillar mobaynida qabriston atrofi devor bilan o'raldi, chetan o'rni darvoza o'rnatildi, turli ma'rakalar o'tkazish uchun oshxonaga, katta ayvon, uylar qurildi.

Odamsodning shu sur'atda ko'payib borishi turarjoy taqchilligini keltirib chiqardi. Qabristonlarga sug'orma, tekis joy ajratish qiyinlashadi. Tog' qishloqlarida azaldan

qabriston uchun adirlar yonbag'ri tanlanadi. Ilgari shaharlarda ham xilxona – oilaviy qabr joylarini ijaraga olish urf bo'lgan. Eski mayitning so'ngaklari sopol xumga yig'ilib, sirtiga kimniki ekani yozilar va xilxonaning tokchasi-ga qo'yilar, uning o'rniga nabirayu abirasi qo'yilaverardi.

1970-yillari adirda qo'riq yer o'zlashtirayotgan paytda buldozer kattagina sopol xumning og'zini ochib ketadi. Bu xumni kovlab olishganida, ichida uch ming yil burun o'tirgan holda dafn etilgan marhumning so'ngaklari chiqdi. Uning yonidan turli ro'zg'or anjomlari, tangalar topildi. Bunday xumlardan yana anchagina aniqlandi. Bu joy qadimgi davrda qabriston bo'lgan. Sopol-u ro'zg'or anjomlari, tangalardan bu joylarda bir paytlar kattagina shahar bo'lganini taxminlasa bo'lardi.

Ustoz adib Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" turkumiga kirgan "Dahshat" hikoyasi qabriston bilan bog'liq. Qabristonga bir o'zi borib, o't yoqib, qumg'onda suv qaynatib, choy damlab kelish evaziga qari eri-

dan taloq olishga jazm qilgan yoshgina juvonda otning kallasidek yurak bo'lishi yoki hushi o'zida bo'lmasligi kerakday.

Yana bir o'tmish rivoyati shoir Hofiz Sheroziy bilan bog'liq. Uning dastlabki yozgan g'azallari ko'pchilikning tanqidiga sabab bo'lardi. Hali uylanmagan yosh shoir o'tib ketgan ustozining qabri boshiga boradi-da, omadsizligidan nolib, ustozining haqqiga duo qiladi va beixtiyor ko'zi ilinadi. Tushida ustozini ko'radi va uning talabiga ko'ra yangi yozgan g'azalini o'qib beradi. Navqiron shoir uyg'onib ketib, tun cho'kkanini ko'radi va uyida xavotir olib o'tirgan onasining oldiga yuguradi.

Ertasi kuni u yana o'zini masxara qilmoqchi bo'lgan izdihom qarshisida kecha tushida yozgan g'azalini o'qib beradi. Bu galgi g'azal shu qadar pishiq-puxta va go'zal ediki, oqibatda olomon uni she'r o'g'risiga chiqaradi. Hofizning keyingi g'azallari ham tobora kamol kasb eta boradi va olamga yangi bir zabardast shoir kelganidan darak beradi. Ulug'lar ziyorati ana shunday nekbinlikka sababchi bo'lsa qanday soz: "Go'riston gulistondir, Muqimiy aytgan misol" (Abdulla Oripov).

Xulosa qilib aytganda, qabristonlar kishiga umr g'animat, o'lim muqarrar ekanligini eslatish bilan birga, uni yaxshi ishlar, yangi ijodiy rejalarga undaydi. Umuman, qabriston ham o'z girdini o'rab turgan devor tashqarisidagi hayotning bir qismi hisoblanadi. Tashqaridagi hayot, turmush obodligi qabristonda ham aks etishi tabiiy. Hozirgi qabristonlarimiz tobora obod bo'lib, dorilomon davrimiz ko'zguisiga aylanib bormog'chi. Har yili Xotira va qadrlash kunida bu joylar odamlar bilan gavjum bo'lib, yangi nihollar, gullar ekiladi. Endilikda bu maskanga avvalgidek qo'rquv bilan emas, hayotga muhabbat ruhi bilan qadam qo'yimoqdamiz.

O'liyoy BEGALIYEV



INSON O'ZING


Ba'zan iste'dod va ilhomning qudratini idrok qilish, shuurga sig'dirish imkonsiz. Shunday noyob qobiliyat egalari borki, ularning iqtidorini tahlil etishga aql va tafakkur o'lchamlari o'zlashtiriladi. Betxoven, Uilyam Boys kabi qulog'i eshitmaydigan mashhur kompozitorlar necha asrki insoniyat idrokining markazida turibdi. Hal Lasko ko'zi o'z bo'lib qolganidan keyin ham Microsoft Paint yordamida surat chizgan, Maykl Uilyams ko'zi o'z bo'la turib bebaho rasmlar yaratgan. Bugungi hikoyamiz qahramoni ham o'z vujudining adoqsiz imkoniyatlarini kashf etayotgan iste'dod sohibidir.

Yaqinda "Rossiya 1" telekanalida efirga uzatilgan "Noyob qobiliyatli odamlar" ("Удивительные люди") ko'rsatuvida ishtirok etgan hamyurtimiz Shohrux Suyunovning ikki qo'l va ikki oyog'idan birday foydalanib, o'n besh daqiqa davomida noodatiy uslubda portret chizgani teleboshlovchilar va tomoshabinlarni hayratga soldi. To'g'ri, dunyoda oyoqlarida rasm chizadigan nogiron musavvirlar haqida bilamiz. Biroq, qahramonimiz Shohrux Suyunovning to'rt muchasi sog'lom, xususan, oyoq-qo'llari ham.

Fanda har ikkala qo'lini birvarakayiga ishlata oladiganlar "ambideksterlar" deb ataladi. Aslida butun dunyo aholisining bir foizdan kamrog'i bu xususiyatga ega bo'ladi. Shohrux esa faqat ambidekstergina emas. Mutaxassislar fikricha, qo'l-u oyoqning muvofiq iqtidori "ambiserebrallik" deyilib, bunda miyaning ikki yarim shari xuddi ikkita alohida miya kabi ishlaydi. Ikki tomonlama odamlarning asosiy xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o'zida turli narsalar haqida o'ylab, bir qancha narsalarni yaratadi. Albatta, bunda ko'z, oyoq va qo'llarga katta bosim tushadi.

Iste'dod va ilhomning ilohiy-ligi yoxud ijod namunalarning shunchaki ko'nikma, uzoq yillik mehnat hosilasi ekanligi borasidagi bahs-munozaralar hanuzgacha davom etadi. Hayratlanarlisi, qahramonimiz g'ayritabiiy tarzda nafaqat ikki qo'lida, balki oyoqlarida ham mo'yqalam tutib, surat chizishni atigi

YANGIBINODAN CHIQQAN NOYOB ISTE'DOD



uch oy oldin boshlagan. Uning aytishicha, ijtimoiy tarmoqda bir koreys rassomning qo'l-oyoqlari yordamida asar yaratayotganini ko'rib, bu tajribani o'z tanasida sinab ko'rmoqchi bo'ladi. "Koreys rassomni kuzata turib, xayolmdan o'zbeklar ham buni uddalay oladi, degan o'y kechdi va buni isbotlashga harakat qildim", deydi qahramonimiz. Internet tarmog'ini kuzatib amin bo'ldikki, butun dunyoda bunday noyob qobiliyat egalari nari borsa to'rt-besh nafarni tashkil qilarkan. Biroq ularning orasida o'n besh daqiqada butun boshli portretni chizadigan rassom hanuzgacha topilgan emas. Biz tanishgan manbalarda bu kabi murakkab ish jarayoniga kamida sakkiz-o'n soat sarflanishi aytilgan.

Yosh musavvir bunga qanday erishgani, o'zidagi noyob mahoratning sir-sinoati haqidagi savolimizga shunday javob berdi: "Ijodimda hech qanday sir yo'q. Asosan yo'lida yurganimda vaqtim bekor ketmasligi uchun Rubik kubigini rangiga moslab terib yuraman. Bu qo'l motorikalarini mashq qildirib, miya faoliyatiga juda yaxshi ta'sir qiladi, diqqatni kuchaytiradi. Men shuncha-ki Rubik kubigi yig'ish malakamni rassomlik qobiliyatim bilan birashtir-

dim. Hammasi chap qo'limni ham birday ishlata olishimni bilganimdan so'ng boshlangan. Shunda ko'nglimda ikkita yumushni bir vaqtda bajarish fikri tug'ilgan va qilib ko'rganman. O'ng qo'limda rasm chizsam, chapimda Rubik kubigini zo'r yig'ardim. Biroq oyoq va qo'llar yordamida rasm chizish jarayonida diqqatni jamlash juda qiyin bo'ladi".

Shohrux asosan hozir urf bo'layotgan zamonaviy uslublarni – Strit-art, Graffiti va Pop-art yo'nalishlarida ijod qiladi. Bundan tashqari, noodatiy uslublarda portret chizish bilan ham shug'ullanadi. Rassomning aytishicha, eng kichik ijodi barmoq izi kattaligidagi portret bo'lgan. Yana ip orqali, minglab mayda odamchalar shaklini chizib, matnini oq qalamda qora qog'ozga yozib, piksellar ko'rinishida, 140 dona o'yin kartalariga domino tarzida yiqitish kabi uslublarda noan'anaviy portretlar yaratgan. Qahramonimiz suhbat chog'ida bolaligida dadasi bilan birgalikda "Noyob qobiliyatli odamlar" ("Удивительные люди") ko'rsatuvini tomosha qilgani va unga bir kun kelib o'zi ham shu ko'rsatuvda ishtirok etishga va'da bergani, qobiliyatini butun dunyoga namoyon qilish eng katta orzularidan biri bo'lganini

aytadi. "Tomoashabinlarni lol qoldirish maqsadida bir paytning o'zida ikki qo'lida uchta portret ishladim, – deydi u. – So'ngra bir qo'limda uchta portret, keyin yanada murakkabroq yumush – qo'l va ikki oyoqlarim yordamida bir paytning o'zida to'rtta portret chizdim. Aynan shu ishim ko'plab odamlarni hayron qoldirdi".

Iste'dodli musavvir 1998-yilda Nurota tumanidagi Yangibino qishlog'ida tavallud topgan. Shohruxning rasm chizishga bo'lgan qiziqishi hali yozishni ham bilmagan paytlaridan boshlangan. Besh yoshida shifokor rasmini oddiy daftar varag'iga qizil ruchka bilan chizganida otasi undagi iste'dod uchqunlarini payqab, qishlog'idagi tasviriy san'at muallimiga o'qishga beradi. Yetti yoshga to'lganida esa Nurota tumanidagi ixtisoslashtirilgan san'at maktabida rassomlik sirlarini o'rganishni boshlaydi. 2023-yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tasviriy san'at fakultetini "Mahobatli rangtasvir" yo'nalishi bo'yicha tamomladi. Shundan buyon respublika "Hunarmand" uyushmasi a'zosi sifatida devorga bezak berish yo'nalishida faoliyat olib bormoqda. Qolaversa, o'zi

tashkil qilgan tasviriy san'at yo'nalishidagi o'quv markazida yoshlarga ustozlik qilmoqda.

Suhbatdoshimiz qator ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, nufuzli o'rinlarni qo'lga kiritgan. 2022-yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan Strit-art yo'nalishidagi "Toshkent Art Fest" festivalida "Hayot bebahodir" nomli asari bilan qatnashib, birinchi o'rinni qo'lga kiritgan. Xalqaro "Tinchlik uchun! – 2022" ijodiy tanlovida ham g'olib bo'lgan. Qahramonimiz "Eng iste'dodli rassom – 2022" nominatsiyasining ham sovrindori.

Shijoat va g'ayratga to'la, tinib-tinchimas, yangilikka o'ch Shohrux bilan suhbatlashib amin bo'ldikki, rassomning muvaffaqiyati siri faqatgina san'at sirlarini puxta egallashida emas, balki doimiy o'qib-o'rganish, izlanishdan charchamasligida ekan. U bugunga qadar bir qator fan olimpiadalari va kitobxonlik tanlovlarida muvaffaqiyatli qatnashgan. Intellektual o'yinlar uning jonu dili. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Rubik kubigini professional darajada yig'ish bilan shug'ullanib, Butunjahon speydecuberlar assotsiatsiyasi a'zolariga qabul qilingan. Qolaversa, intellektual o'yinlarida ham o'z jamoasi bilan muntazam ishtirok etmoqda. 2022-yilda "Raqqamli savodxonlik" onlayn tanlovining bosh sovrini bilan taqdirlangan.

Shohruxdan kelajakdagi rejaları va maqsadları haqida so'raganimizda "O'zbekistonni dunyoga tanitish uchun bor iste'dodim, mehnatim va kuchimni sarflayman", deya javob qildi. Shu gapidan so'ng unga mehramiz va hurmatimiz yanada oshdi.

Shohrux kabi noyob iste'dod sohiblarini qo'llab-quvvatlab, ularga zarur sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Axir, Ginnessning rekordlar kitobidan faqat pishirgan osh-ovqatlarimiz bilan emas, go'zallikni tarannum etuvchi san'at asarlarimiz, bashariyatni lol qoldiruvchi iste'dodlarimiz bilan ham o'rin olsak, qanday yaxshi!

Muyassar IBROHIMOVA

BEDOR O'Y

Lug'atlarda yozilishicha, "hafsala" inson irodasining mehnat yoki harakatga moyilligini, biron-bir ishni chin dildan ado etish istagini ifoda etadi. Kundalik hayotimizda "shu ishga hafsalasizlik qildim" yoki "bu yumushni astoydil, hafsala bilan bajardim", "agar hafsala qilib, jon-dildan kirishmasang, bu hayotda biror natijaga erisholmaysan" kabi gaplarni ko'p eshitamiz.

Umr bo'yi halol mehnat ortidan kun kechirgan rahmatli padari buzrukorimning: "Qunt, hafsala bilan qilingan ishda baraka bo'ladi, bolam", degan so'zlari hayotda meni doimo tartibli, intizomli bo'lishga undab kelgan.

Buyuk matematik bobomiz Muhammad al-Xorazmiyning ajoyib tenglamasiga e'tibor bering: "Agar inson yaxshi xulq sohibi bo'lsa, bami-soli u – birga teng. Agar inson husn sohibi bo'lsa, birning yoniga nolni qo'shing – 10 bo'ladi. Agar inson boy bo'lsa, yana bitta nolni qo'shamiz – 100 bo'ladi. Agar inson nasl-nasabli bo'lsa, yana bitta nolni qo'shing – 1000 bo'ladi. Bordi-yu, bu sanoqdan bir raqami, ya'ni xulq g'oyib bo'lsa, insonning qiymati yo'qolib, faqat nollarning o'zi qoladi". Qarang, qanday oddiy, shu bilan birga teran falsafa. Demak, yaxshi xulq insonning insoniyatini belgilaydigan eng muhim mezonidir. Axir, muborak hadislarimizda ham: "Sizlar farzandlaringizga meros qilib qoldiradigan eng katta boylik – bu yaxshi axloq-odobdir", deb ta'kidlangani bejiz emas.

Bizning bolaligimiz Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyingi og'ir davrga to'g'ri kelgan. Qishloqlarda uylarning tomiga qamish va xas-xashak yoyilib, ustiga tuproq to'shalib, somonli loy bilan suvalardi. Kiyadigan kiyimlarimiz kamtarona, yeydigan ovqatimiz hozirgiday xilma-xil emasdi.

HAFSALANI PIR QILMANG, PIR TUTING!



Hamma joyda sovetning majburiy tenglashtirish, ya'ni qashshoqlashtirish siyosati hukmron bo'lsa-da, odamlarda o'zbekona mehnat-qibat, boriga qanoat qilib, shukrona bilan yashash tuyg'usi kuchli edi. Har qanday sharoitda ham bemor yoki keksa kishilarning holidan, ikki-uch qishloq oshib bo'lsa-da, xabar olish odamgarchilikning belgisi sanalardi. "Hafsala qilib, bir ko'rib ketay dedik-da", deya uyimizga yaxshi niyat bilan eshik qoqib keladigan insonlardan ibrat olib yashardik. "Falonchilikiga hasharga!" degan

da'vatni eshiksak, qayerda bo'lishimizdan qat'i nazar, yugurib boraverardik.

Bunday "o'zbekchilik" deb atalgan hayot tarzi or-nomus va g'urur masalasiga aylanib ketgan, shunday xayrli ishlarda ishtirok etmaslikning o'zi uyatli, eldan ajralib qolishni bildirar edi. Lekin, afsuski, bugungi shiddatli davrda turli tashvish va muammolar bilan band bo'lib, hadeganda yordamga muhtoj, mehrga zor, nochor odamlarning ko'nglini so'rashga qunt va hafsala qilavermaymiz.

Biz uchun necha zamonlardan buyon dolzarb mavzu bo'lib kelayotgan to'y va ma'rakalarni kamxarj qilib o'tkazish masalasini olaylik. O'tgan asr boshlarida jadid bobolarimiz bu haqda qancha kuyunib gapirgan edilar. Yana bir bor taassuflar bo'lsinki, ulug' ma'rifatparvarlarimizning ana shu ogohlantirishlari, oradan shuncha vaqt o'tsa-da, hanuzgacha qalbimizga yetib bormayapti, befarq qarayapmiz. Kimlarnidir qoyil qoldirish ilinjida ota-bobolarimizning yetti uxlab tushiga ham kirmagan marosimlarni o'ylab topmoqdamiz. To'y-larimizdagi na milliy urf-odatlarimiz, na o'zbekona uyat-andisha, na ma'naviyat va madaniyat talablariga to'g'ri kelmaydigan "yangilik"larni aytmaymizmi?

Taniqli adabiyotshunos olim G'aybulloh as-Salomning "Tug'ilgan kuning esdan chiqsa chiqsin-u, biroq nima uchun tug'ilganing esdan chiqmasin", degan gapini hayotimizning oltin qoidasiga aylantirishimiz shart. Toki, har bir inson odamiylik matlabi nima ekanini unutmasin.

Xalqimizga Vatanimizga mehr va sadoqat bilan chin dildan xizmat qilish, har qanday sharoitda ham o'z ajdodlariga munosib inson bo'lish hayotimizning ma'no-mazmuniga aylansa, o'zingiz aytib, dunyoda bundan ham ortiq saodat bormi o'zi?!

Abdushukur hoji MUHAMMADQULOV,
mehnat faxriysi,
"Do'stlik" ordeni sohibi,
Samarqand viloyati,
Payariq tumani

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI

Bosh muharrir: Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o'rinbosari: Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir: Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchi: Erkin Yodgorov, Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifiga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan. Kirill yozuvidagi adadi – 6208 Lotin yozuvidagi adadi – 11958 Media kuzatuvchilar – 9700 Buyurtma: G – 440. Hajmi: 4 bosma taboq, A2. Nashr ko'rsatkichi – 222. Tashkilotlar uchun – 223. 1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxonasi: (71) 203-24-20
Devonxonasi: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 18:05
Sotuvda narxi erkin.

